

---

## TOSHLOQDA "MA'RIFAT" TARG'IBOTCHILARI BILAN UCHRASHUV O'TKAZILDI

"Zarkent" mahalla fuqarolar yig'inida joylashgan Xizmat ko'rsatish texnikumida "Yoshlar oyligi" doirasida "Yangi O'zbekiston yoshlari birlashaylik" shiori ostida ma'naviy-ma'rifiy tadbir o'tkazildi.

Tadbirda bir guruh "Ma'rifat" targ'ibotchilar jamiyati a'zolari Rahimboy Jumaniyozov, Mehmonali Salimov, Adolat Ismoilovalar ishtirok etdi.

Uchrashuvda targ'ibotchilar tomonidan davlatimiz rahbari tashabbusi bilan mamlakatimizda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı islohotlar, bunyodkorlik ishlari ta'kidlab o'tildi.

2023-06-24 13:55:39